



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

Turan International University
Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi
Umaraliyeva Shoxsanam Ilxomjon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning mazmuni, manbalari va mexanizmlari yoritib beriladi. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda budjet mablag'lari, ota-onalar to'lovlari, homiylik va grantlar, shuningdek, xususiy sektor ishtirokining o'rni tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda moliyaviy barqarorlikning ahamiyati, resurslardan samarali foydalanish hamda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, moliyalashtirish, davlat budjeti, nodavlat MTT, ota-onalar to'lovi, grantlar, homiylik.

Annotation

This article examines the content, sources, and mechanisms of financing preschool education institutions. It analyzes the role of state budget funds, parental fees, sponsorships, grants, and private sector participation in financing public and private preschool institutions. Special attention is given to the importance of financial sustainability, efficient use of resources, and improvement of financial management in enhancing the quality of preschool education.



Keywords: preschool education, financing, state budget, private preschool institutions, parental fees, grants, sponsorship.



Kirish

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblanib, bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Ushbu bosqichda ta'lim-tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishi, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barqaror moliyalashtirilishiga bog'liq.

Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng islohotlar amalga oshirilayotganligi, jumladan mazkur islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatli ta'lim sohasini kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi bilan xarakterlanadi.

Mamlakatimizda aholisonining ortishi hisobiga ta'lim xizmatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarning bilim-ko'nikma malakasini shakllantirish orqali



ma'lum samaradorlikka erishish maqsad qilib olinganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari bilan birga moliyaviy mexanizm samaradorligini oshirishni talab etadi. Ushbu masalaga doir qator vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da belgilangan bo'lib, bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug'ilishning o'sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turish, moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta'lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta'minlash, moliyaviy nazorat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan byudjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da 38-maqsadida, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini 2021-2022-yillarda 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022–2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90foizga, 2024–2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkiletish kabi qator vazifalarga ustuvorlik berilganligi maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.



Moliyaviy ta'minot ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son qarormining 25-moddasida keltirilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari quyidagi asosiy manbalar orqali moliyalashtiriladi:

1. Davlat budjeti mablag'lari

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan to'lovlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

2. Ota-onalar to'lovlari

Ota-onalar to'lovlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyalashtirishida muhim qo'shimcha manba hisoblanadi. Ushbu mablag'lar asosan bolalarni oziqlantirish, rivojlantiruvchi o'yinchoqlar va qo'shimcha xizmatlar uchun sarflanadi.

3. Homiylik va grantlar

Homiylik mablag'lari va xalqaro hamda mahalliy grantlar maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular yangi loyihalarni amalga oshirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

4. Nodavlat sektor ishtiroki



Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish ularning muassislari mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Moliyalashtirishning ta'lim sifati bilan bog'liqligi

Moliyalashtirish hajmi va samaradorligi maktabgacha ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq. Yetarli moliyaviy resurslar:

- pedagog kadrlarning malakasini oshirish;
- zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlash;
- bolalar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratish;
- innovatsion ta'lim dasturlarini joriy etish imkonini beradi.

Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish yo'llari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanish;
- shaffof moliyaviy nazoratni yo'lga qo'yish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
- moliyaviy rejalashtirish va monitoringni kuchaytirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali moliyalashtirish ta'lim sifati va tizim barqarorligining muhim omilidir. Davlat budjeti, ota-onalar to'lovlari, homiylik va nodavlat sektor ishtirokini uyg'unlashtirish orqali maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish mumkin.



Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish esa bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"gi PF–60-sonli Farmon
3. 25-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
4. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>